

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BO'LAJAK TARBIYACHILARINING IJTIMOYIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Nurjanova Rayxan Urazbaevna,  
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
"Tillar va maktabgacha ta'lim" kafedrasi dotsenti  
rayxannurjanova11@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501935>

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish, ijtimoiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uning tarbiyachi kasbiy faoliyatidagi o'rni yoritib berilgan. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida foydalanilib, bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, pedagogik tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv.

**Аннотация.** В статье освещены вопросы формирования социальной компетенции будущих воспитателей дошкольного образования, сущность и содержание социальной компетенции, ее структурные компоненты и роль в профессиональной деятельности воспитателя. В качестве методологической основы использованы компетентностный, личностно-ориентированный и деятельностный подходы, определены эффективные педагогические методы, служащие развитию социальной компетентности у будущих воспитателей.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, социальная компетентность, компетентностный подход, личностно-ориентированное образование, деятельностный подход, педагогическая подготовка, социальная адаптация.

**Abstract.** The article examines the issues of forming the social competence of future preschool educators, the essence and content of social competence, its structural components, and its role in the professional activity of an educator. As a methodological basis, competency-based, personality-oriented, and activity-based approaches were used, and effective pedagogical methods serving the development of social competence in future educators were identified.

**Key words:** professional competence, social competence, competency-based approach, personality-oriented education, activity-based approach, pedagogical training, social adaptation.

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar mazmunan va sifat jihatidan tubdan o'zgarib bormoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki yuksak darajadagi ijtimoiy kompetensiyaga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati va shaxs sifatida shakllanishida tarbiyachining ijtimoiy yetukligi katta ahamiyatga kasb etadi. Ijtimoiy kompetensiya bo'lajak tarbiyachining jamoadagi o'rni, samarali muloqot olib borish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri baholash, hamkasblar, ota-onalar hamda tarbiyalanuvchilar bilan sog'lom munosabat o'rnatish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida

ularning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat ta'lim standartlarida pedagog kadrlarning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, tarbiyachilarning malaka va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirish [1] muhimligi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali usullar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, xususan, ularning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning jamiyatda samarali muloqotga kirisha olishi, ijtimoiy rollarni anglash va bajarish, hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Xorijiy tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv shaxsning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ijtimoiy-hissiy xususiyatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida talqin etiladi. Masalan, J.Ravanning ilmiy ishlari [7]da kompetensiya ko'plab mustaqil tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri shaxsning samarali faoliyati olib borishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi, shu jumladan ijtimoiy va motivatsion komponentlarning o'rnini alohida ochib berilgan.

Richard Boyatzisning kompetensiyalar haqidagi izlanishlari [3]da esa "emotsional" va "ijtimoiy" kompetensiyalar shaxslararo munosabatlar, boshqalar bilan samarali munosabat o'rnatish va ijtimoiy moslashish kabi ko'nikmalar majmui sifatida ko'rib chiqiladi; bu kompetensiyalar shaxsning hissiy va ijtimoiy xususiyatlarini ifodalaydi va ular o'rganilishi hamda rivojlantirilishi mumkinligi ilmiy dalillar bilan tasdiqlangan.

Shuningdek, J.Delors [5] tomonidan UNESCO taklif etilgan "Ta'limning to'rt ustuni" (bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, shaxs sifatida shakllanish) konsepsiyasida ijtimoiy kompetensiya muhim tarkibiy qism sifatida e'tirof etiladi va ta'limni individual shaxsni ijtimoiy va hissiy jihatdan to'laqonli rivojlantirishga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi.

Mahalliy olim [8], [2], [4]larning tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi tarkibida ijtimoiy kompetensiya alohida komponent sifatida ajratib ko'rsatilgan. Ularning ishlarida tarbiyachining kasbiy faoliyatida bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish, pedagogik etikani saqlash va jamoada ishlash ko'nikmalarining ahamiyati asoslab berilgan.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishiga oid tadqiqotlarda bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan bo'lsa-da, aynan ijtimoiy

kompetensiyani shakllantirish usullari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat mazkur mavzuni chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib, uni maktabgacha ta'lim tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqib metodik jihatdan takomillashtirish talab etiladi.

Mazkur tadqiqot bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, unda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. Nazariy metodlar: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali ijtimoiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash.

2. Empirik metodlar: kuzatish, suhbat, anketa va so'rovnomalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiya darajasini tashxislash.

3. Pedagogik tajriba-sinov: maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulotlar, treninglar, rolli o'yinlar va interfaol metodlar orqali ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish samaradorligini sinovdan o'tkazish.

4. Statistik tahlil metodlari: olingan natijalarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish hamda natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalari tanlab olindi. Metodologik yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishda muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, jamoaviy faoliyat, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va refleksiv tahlil usullaridan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

**Muhokama.** Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining kasbiy faoliyati nafaqat pedagogik bilim va ko'nikmalar, balki yuqori darajadagi ijtimoiy kompetensiyaga ham har tomonlama bog'liqdir. Ijtimoiy kompetensiya – bu shaxsning jamiyatda samarali muloqot qilish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri baholash, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy rollarni ongli bajarish va ijtimoiy mas'uliyatni his etish qobiliyatlarining majmui.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: kommunikativ kompetensiya (bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot); emotsional-intellektual kompetensiya (empatiya, o'z hissiyotlarini boshqarish); ijtimoiy faollik va moslashuvchanlik; ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar.

Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ijtimoiy kompetensiya tarbiyachining kasbiy yetukligi, pedagogik madaniyati va shaxsiy pozitsiyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- faoliyatga asoslangan ta'lim;
- ijtimoiy tajribani modellashtirish;
- refleksiya va o'z-o'zini baholash.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni real ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlashga, ularda mustaqil fikrlash va ijtimoiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi bolalar, ota-onalar, pedagogik jamoa va jamiyat bilan doimiy ijtimoiy aloqada bo'ladi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni oliy ta'lim bosqichidan boshlab tizimli va maqsadli tashkil etilishi lozim, bu davrda mazmunli ta'lim, kelajakdagi kasbiy faoliyatga ijodiy munosabat asoslari yaratiladi. Ushbu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Rolli va syujetli o'yinlar. Maktabgacha ta'lim muassasasida uchraydigan vaziyatlarni sahnalashtirish, rolli o'yinlarda ishtirok etish orqali talabalar tarbiyachi, ota-ona yoki bolalada chiqish qilib, empatiya va muloqot ko'nikmalarini egallaydi, pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiradilar. Masalan, ota-ona bilan suhbat, konfliktli vaziyatni hal etish kabi muammoli vaziyatlar talabalarni muloqotga kirishish va muammoli holatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Amaliy mashg'ulot va pedagogik amaliyot. Talabalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliy faoliyati ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamoa bilan ishlash va real pedagogik vaziyatlarda o'zini tutish kompetensiyasini rivojlantiradi. Pedagogik amaliyot davomida talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zaro fikr almashish va o'zini baholash orqali ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlaydilar. Amaliyot jarayonida refleksiv kundaliklar yuritish ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

Trening va seminarlar. Shaxslararo muloqot, konfliktologiya va jamoaviy ish bo'yicha treninglar bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ijtimoiy-psixologik treninglar shaxslararo muloqot sohasidagi bilimlar, ijtimoiy munosabatlar, ko'nikmalar va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik ta'sir vositasi [6] sifatida qayd etiladi. Ijtimoiy-psixologik treninglar talabalar orasida jamoada ishlash, liderlik, empatiya va tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar ijtimoiy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Loyiha va jamoaviy faoliyat. Guruhli loyihalar talabalarni hamkorlikda ishlashga, fikr almashishga va ijtimoiy mas'uliyatni his etishga o'rgatadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar (masalan, "Maktabgacha ta'limda ijtimoiy moslashuv", "Bolalarda ijtimoiy xulqni rivojlantirish") orqali talabalar ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etish tajribasiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani samarali shakllantirishda ta'lim jarayonida ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, talabalarning faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ijtimoiy tajribani aks ettiruvchi vaziyatli topshiriqlardan foydalanish kabi pedagogik shart-shartlarga rioya etish zarur.

**Natijalar.** Tadqiqot jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizim ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot uch bosqichda aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida amalga oshirildi.

Aniqlashtiruvchi bosqich natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyatida ijtimoiy kompetensiyaning kommunikativ, ijtimoiy-hissiy va reflektiv komponentlari yetarli darajada shakllanmagan. Xususan, respondentlarning katta qismi jamoada ishlash, muloqot jarayonida pedagogik etikaga rioya qilish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi. Bu holat ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyat zarurligini tasdiqladi.

Shakllantiruvchi bosqichda interfaol metodlar, trening mashg'ulotlari, rolli o'yinlar, muammoli pedagogik vaziyatlarni modellashtirish hamda jamoaviy faoliyatga asoslangan topshiriqlar tizimli ravishda joriy etildi. Mazkur usullar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularning muloqot madaniyati, hamkorlik ko'nikmalari va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhidagi talabalarda ijtimoiy kompetensiyaning shakllanish darajasi sezilarli oshganini ko'rsatdi. Jumladan, kommunikativ kompetensiya darajasida barqaror o'sish, ijtimoiy-hissiy barqarorlikning mustahkamlanishi hamda refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarining rivojlanganligi qayd etildi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhida yuqori va o'rta darajadagi ijtimoiy kompetensiya ko'rsatkichlari ustunlik qilgani aniqlandi. Natijada tajriba guruhidagi talabalar ijtimoiy kompetensiyasining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy o'sish qayd etildi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishda pedagogik jarayonga amaliy faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan metodlarni joriy etish samarali hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining uzluksizligi va tizimliliigi uning barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Tarbiyachining kasbiy faoliyatida bolalar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan samarali muloqot o'rnatish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri baholash hamda ijtimoiy mas'uliyatni his etish uning kasbiy yetukligi va pedagogik madaniyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizim ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Tajriba-sinov natijalari interfaol metodlar, treninglar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va jamoaviy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlarning ijtimoiy kompetensiyaning kommunikativ, ijtimoiy-hissiy va refleksiv komponentlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon ta’lim sifati va tarbiyachi kasbiy tayyorgarligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori
2. Abidova N.Z., Saipova T.R. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. // Tadqiqotlar.UZ, 2024. – №35 (1). – B. 15-21.
3. Boyatzis R.E.et al. Emotional and Social Intelligence Competencies and the Intentional Change Process. ResearchGate // Cognitive Readiness in Project Teams, 2019. – P. 147-169.
4. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика: дарслик / Н.Эгамбердиева. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 232 б.
5. Learning: The treasure within: Rep. to UNESCO of the Intern. commiss. on education for the twenty-first cent. – Paris: UNESCO, 1996. – 266 p.
6. Петровская Л.А. Теоретические и методические проблемы социально-психологического тренинга. – М.: Просвещение, 1982. – 168 с.
7. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – H.K.Lewis, 1984. – 251 p.
8. Xalilova D.F. Bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish samaradorligi. // Inter education and global study, 2025. – №1. – B. 325-330.